

QUYI AMUDARYO MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING SALBIY OQIBATLARI

Dusanova Sh.B.,

Urganch davlat universiteti geografiya kafedrası dotsenti, geografiya fanlari nomzodi, Sharafat1603@mail.ru

Dushamov D.A.

Urganch davlat universiteti magistranti, doni-a@mail.ru

Аннотация: В статье показано состояние изменения природных компонентов в Нижнем Амударье в результате глобального изменения климата, его влияние на окружающую среду, а также приведены сведения о мерах по его предотвращению.

Ключевые слова: переносной песок, пыльная буря, саксофон, черкесска, углекислый газ, кислород, микроклимат, живая изгородь, велодорожка, капельное орошение.

Abstract: The article shows the state of change of natural components in the Lower Amudarya region as a result of global climate change, its impact on the environment, and provides information on measures to prevent it.

Key words: portable sand, dust storm, saxophone, Circassian, carbon dioxide, oxygen, microclimate, hedgerow, bike lane, drip irrigation.

Global isish oqibatida mintaqada Orol dengizi havzasining daryolarini tahminlaydigan qor-muzlik resurslarining maydoni tanazzulga uchramoqda va qisqarmoqda. So'nggi yarim asrda Markaziy Osiyo tog'li muzliklari uchdan bir qismdan ortiq qisqargan.

Hozirgi kunda Quyi Amudaryo mintaqasida iqlim o'zgarishlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarga sanoatning 4 barobarga oshishi hamda avtomobil, temir yo'l va aviatransporti qatnovining keskin ko'payishi tufayli dvigatellardan atmosferaga chiqayotgan is gazlari miqdorining oshishini ko'rsatib o'tish mumkin. Shu bilan birga hududimizda suv resurslaridan nooqilona va samarasiz foydalanish oqibatida cho'llanishlar oshib boryapti. Qishloq xo'jalik sohasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish uchun suvdan keragidan ortiq foydalanilmoqda. Misol uchun, 1 kilogram kartoshka yetishtirish uchun 500 litrdan ortiq suv sarflanyapti. Aytish mumukinki, 1 litr suvni narxi o'rtacha 5 ming so'mni tashkil etsa, maxsulot uchun sarflanayotgan resurslarimiz tan narxi 500 marotaba ko'p bo'ladi. Bu borada tejamkor qishloq xo'jalik texnologiyalarini sohaga joriy etish, eng oqilona yechimdir [3].

Bundan tashqari ekologik vaziyatning yomonlashuvi mintaqqa iqtisodiy ko'rsatkichlarining xam keskin pasayib ketishiga olib kelib, iqtisodiy inqirozlarni o'sishiga sabab bo'ladi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar global isish 1,5 °C ni tashkil etadigan bo'lsa, jami zarar 90 % kamroq bo'ladi. Isish 3 daraja bilan cheklanadigan bo'lsa, asr oxiriga kelib global yalpi ichki mahsulot 3,5 % ga

qisqaradi. Oksford Iqtisodiyotining manbasiga ko'ra, 2050-yilga kelib haroratning 2 darajaga ko'tarilishi global yalpi ichki mahsuloti 2,5 % — 7,5 % ga kamayib, 2100 yilga kelib, harorat 4 darajaga ko'tariladigan bo'lsa, global yalpi ichki mahsuloti 30 % ga kamaytirishi mumkinligi aytilgan.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, Quyi Amudaryo mintaqasida iqlim o'zgarishi tufayli sodir bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin

- SO₂ kontsentratsiyasi atmosfera havosida ortishi;
- suv resurslari taqchilligining kuchayishi, shuningdek hududlarda ichimlik suvining yetishmasligi hamda muzlik va qor qoplami kunlarining 7-10 kunga kamayib borishi, qurg'oqchilik takrorlanishining ko'payishi.
- o'rtacha haroratning oshishi, yillik issiq davrlarning 10-15 kunga o'sib borishi;
- yog'ingarchilikning yillik o'rtacha darajasini pasayishi va ularning vaqt hamda miqdori bo'yicha notekis tarqalishi, haddan tashqari kuchli yog'ingarchilikli va umuman yog'ingarchiliksiz kunlar sonining ortishi;
- qishloq xo'jaligida yetishtirish uchun maqbul ekinlar tarkibi butunlay o'zgarishi;
- yuqori darajadagi jaziramalar takrorlanishining oshishi, harorat rejimi kuchayishi natijasida aholi salomatligi bilan bog'liq muammolar ko'payishi;
- cho'llashish jarayonlarining kuchayishi, yahni, yashash va xo'jalik yuritish mumkin bo'lgan yerlarning kamayishi olib keladi [1].

Iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin:

Quyi Amudaryo mintaqasida paydo bo'lgan cho'l o'rnida o'rmon barpo qilish orqali ko'chma qumlarni mustahkamlash, yerning ustki qismida shamol tezligini kamaytirish, qum, chang bo'ronlarini to'xtatish mumkin. Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, 3 yoshli saksovulzorda qum ko'chishi 55 foizga, 5 yoshda 79 foizga kamayadi va 7 yoshda butunlay to'xtaydi. 1 tup o'rta yoshli saksovul o'z ildizi bilan 10 tonna qumni mustahkamlaydi va ko'chishiga yo'l bermaydi. 1 gektar saksovul va cherkezdan iborat o'rmonzor yil davomida 1135 kg. karbonat angidrid gazini yutib 835 kg. kislorod ajratadi. Bu esa havo tarkibini yaxshilaydi, atrof-muhitni ifloslanishiga chek qo'yadi.

Bundan tashqari iqlimni maqbul axvolga keltirish uchun ekinzorlarda mikro iqlim xosil qilish ixota daraxtzorlari va sunhiy suv xavzalari barpo etilsa, havoning nisbiy namligi oshadi, saratondagi issiq quriq shamollardan ekinlar himoyalanaadi, natijada bir tsentner bug'doy hosili yetishtirish uchun sarflanadigan suv 35-50 foizga qisqaradi. Ixota daraxtzorlarini barpo etish, bizning sharoitimizda Orol dengizining qurigan tubidan uchib kelayotgan tuzlardan dalalarni asrash uchun ham xizmat qiladi.

Mintaqada tuproqning sho'rlanish surhatini keskin darajada sekinlashtirishga erishish uchun ota-bobolarimiz tomonidan azaliy keng qo'llanib kelayotgan

uslublardan biri bu - kuz, qish va bahor davrlarida bug'doy o'stirish, uning o'rnida esa takroran oq jo'xori o'stirishdir. Bunday holda, tuproq sirti yashil libos bilan deyarlik butun yil davomida qoplanib, tuproq sirtidan suvning bug'lanishi kamayib, sho'rlanish surhati sekinlashadi[2].

Qish oylarida tabiiy sovuqdan ham, energiyani tejash maqsadida foydalanish mumkin. Yaqin o'tmish tariximizdan shu narsa ma'lumki, Xiva xonligida qish oylarida yirik kanallarda, ko'llarda hosil bo'ladigan muzlar chopib olinib, ular bir joyga juda katta hajmda g'aramlangan, ustini yopib keyin tuproq bilan ko'milgan. Ana shunday g'aramlardagi muz parchalari yoz davrida sovuqlik manbai sifatida foydalanilgan. Buning ekologik jihatdan afzalligi shundaki, muz erish jarayonida yozda atrof-muhit jazirasini pasaytiradi. Hozirgi elektr quvvati yordamida ishlaydigan sovutgichlar esa, aksincha atrofga qo'shimcha energiya tarqatib, yoz jazirasini yanada kuchaytiradi.

Yoqilg'ilar sifatini yanada yaxshilash hamda ekologik toza transport vositalarini ko'paytirish, shu jumladan keng jamoatchilik uchun qulay bo'lgan veloyo'lakchalar tashkil etish o'z navbatida issiqxona gazlari miqdorini kamaytiradi. Suvdan oqilona foydalanish. Tomchilab sug'orishni tashkil etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish ham o'z navbatida iqlim o'zgarishlariga moslashish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmo'minov J.T. Iqlim o'zgarishining qishloq ho'jaligi rivojlanishiga tahsiri va uning oqibatlarini yumshatish, iqlim o'zgarishi masalalarini hal qilishga zamonaviy yondashish. Qo'llanma. Toshkent-2018.
2. Nabiev O'.A. O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga moslashish chora-tadbirlari. Qo'llanma. Toshkent-2018.
3. Internet ma'lumotlari. <https://sdr.uz.>iqlim-uzgarishi>